O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK:81.01

Gulchehra MARDONOVA,
Navoiy davlat universiteti O‘zbek mumtoz adabiyoti yo‘nalishi tayanch doktoranti
E-mail : mardonovagulchehra.2908@gmail.com, https://orcid.org/0009-0007-2662-999X

DSc, professor N.Soatova taqrizi asosida

OGAHIY MUXAMMASLARINING MAVZU JIHATDAN TASNIFLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Ogahiyning muxammaslari mavzuiy, strukturaviy va badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Shoir muxammaslarida ishqiy, tasavvufiy, falsafiy, tabiat va rindona mavzularining ifodalanishi, ishqiy va tabiat obrazlarining uyg‘unligi yoritiladi. Shuningdek, muxammaslarning mumtoz shoirlar g‘azallariga bog‘lanish an’anasi hamda Alisher Navoiy ijodiy ta’siri tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari Ogahiy muxammaslarining mavzu va badiiy jihatdan rang-barangligini, ularda ichki erkinlik, samimiyat va haqiqiy ishq g‘oyalarining muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, muxammas, mumtoz adabiyot, g‘azal, tasavvuf, ishq, rindona mavzu.

ТЕМАТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ МУХАММАСОВ ОГАХИ

Аннотация

В статье анализируются тематические, структурные и художественные особенности мухаммасов Огахи. Рассматривается отражение любовной, суфийской, философской, природной и риндона-тематики, а также взаимосвязь любовных и природных образов. Особое внимание уделяется традиции создания мухаммасов на основе газелей классических поэтов и влиянию Алишера Навои на творчество Огахи. Результаты исследования показывают тематическое и художественное многообразие мухаммасов поэта, в которых важное место занимают идеи внутренней свободы, искренности и истинной любви.

Ключевые слова: Огахи, мухаммас, классическая литература, газель, суфизм, любовь, риндона.

THEMATIC CLASSIFICATION OF OGAHIY’S MUKHAMMASES

Annotation

This article analyzes the thematic, structural, and artistic features of Ogahiy’s mukhammās poems. It examines amorous, mystical, philosophical, natural, and rindona themes, as well as the fusion of amorous and natural imagery. Particular attention is given to the tradition of composing mukhammās based on classical poets’ ghazals and the influence of Alisher Navoi on Ogahiy’s creative style. The findings demonstrate the thematic and artistic diversity of Ogahiy’s mukhammās, highlighting the ideals of inner freedom, sincerity, and true love.

Key words: Ogahiy, mukhammas, classical literature, ghazal, mysticism, love, rindona.

Adabiyotlar tahlili. Muxammas janrining genezisi, shakllanishi va o‘zbek adabiyotidagi taraqqiyoti G. Boltayevaning tadqiqotida tizimli ravishda yoritilgan [3]. M. Sulaymonovning Hofiz Xorazmiy ijodiga bag‘ishlangan tadqiqoti esa o‘zbek lirik she’riyatida muxammasnavislik an’analarining dastlabki bosqichlarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi [5]. Mazkur qarashlar O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasidagi janrga oid nazariy ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi [4]. Ogahiy lirikasining poetik tabiati R. Majidiyning tadqiqotlarida [9], uning musammatlari esa G. Xalliyevaning monografiyasida [7] o‘rganilgan. Xalliyeva Ogahiy musammatlarining janriy xususiyatlari, mavzu doirasi va badiiy ifoda vositalariga e’tibor qaratadi. Biroq muxammaslarning ishqiy, tasavvufiy, tabiat va rindona mavzulari hamda ularning poetik munosabati alohida tizim sifatida yetarlicha tadqiq etilmagan.Ogahiy ijodidagi Navoiy an’analarini yoritishda A. Hayitmetovning Navoiy lirikasiga oid tadqiqotlari [6] va R. Vohidovning ilohiyot masalasiga bag‘ishlangan monografiyasi [10] muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. N. Jumayevning tadqiqoti [8] esa Ogahiy ijodining Xorazm adabiy-madaniy muhiti bilan bog‘liqligini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotning asosiy badiiy manbasi Ogahiyning “Devon”i [11] bo‘lib, undagi muxammaslar bevosita matn asosida tahlil qilinadi. E. S. Bertelsning “Sufizm i sufiyskaya literatura” asari [12] tasavvufiy motivlarning nazariy talqinida foydalanilgan. Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar muxammas janri va Ogahiy lirikasining turli jihatlarini yoritgan bo‘lsa-da, Ogahiy muxammaslarining mavzuiy tasnifi, poetik qurilishi va badiiy-estetik xususiyatlarini yaxlit tizimda tadqiq etish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Ogahiy muxammaslarining mavzuiy, strukturaviy va badiiy xususiyatlarini aniqlash maqsadida matniy, qiyosiy-tipologik va poetik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbasini Ogahiyning “Devon”i [11] hamda shoir ijodiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi.

Muxammaslarning janriy xususiyatlarini belgilashda ularning band tuzilishi, qofiya va radif tizimi, vazni, obrazlar va badiiy tasvir vositalari tahlil qilindi. Mavzuiy jihatdan asarlar ishqiy, tasavvufiy, falsafiy, tabiat va rindona yo‘nalishlarga ajratilib, ularning o‘zaro aloqasi aniqlandi. Shuningdek, qiyosiy-tipologik metod asosida Ogahiy muxammaslaridagi poetik an’analar Alisher Navoiy ijodi bilan qiyoslandi. Tasavvufiy mazmunni yoritishda E. S. Bertels [13], Navoiy lirikasining g‘oyaviy-estetik xususiyatlarini aniqlashda A. Hayitmetov [6] va R. Vohidov [10] tadqiqotlaridagi ilmiy-nazariy qarashlarga tayanildi. Natijalar umumlashtirish va tizimlashtirish asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Hozirgi kunda davlat rahbarimiz tomonidan adabiyot sohasiga katta e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, yozma manbalar va mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb masala bo‘lmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonida aytilgan quyidagi fikrlar ahamiyatlidir: “Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”[1]. Shu bilan bir qatorda adabiyotimizda alohida o‘rin tutuvcgi muxammas janri madaniy merosimizning bir qismi sanaladi. O‘zbek adabiyotida muxammas janri g‘azaldan keyingi o‘rinda turuvchi janrlardan biri hisoblanadi. Manbalardan ma’lumki, muxammas so‘zi arabchada “beshlik” degan ma’noni anglatib, nafaqat o‘zbek adabiyotida,balki Sharq mamlakatlari adabiyotida ham keng tarqalgan bo‘lib,bu janrda bir qator ijodkorlar ijod qilgan. Xususan, o‘zbek adabiyotida Ogahiy Navoiydan keying o‘rinda turuvchi muxammasnavis sifatida namoyon bo‘ladi. Ogahiyning muxammaslari mavzu jihatidan nihoyatda boy bo‘lib, ularda ishqiy, tasavvufiy hamda falsafiy mazmuni murakkab g‘oyalar o‘z ifodasini topgan Asosiy mavzular qatoriga tasavvuf, tabiat manzaralari, dunyoviy ishq va ilohiy ishq kiradi. Shoir ijodida ko‘pincha ishqiy va tabiat tasvirlarining uyg‘unlashuvi kuzatiladi Shuningdek, ham Ogahiy ijodining o‘ziga xos yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda ichki erkinlik, samimiyat va haqiqiy ishq ulug‘lanadi. Ogahiy ijodining zamonaviy ma’naviy-adabiy ahamiyatini yoritishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning milliy adabiy merosga bo‘lgan e’tiborini alohida ta’kidlash lozim. Prezident Xorazm zaminida yetishib chiqqan buyuk alloma va adiblar qatorida Ogahiyni ham alohida e’tirof etib, uning nomini xalqimizning faxr-u iftixori bo‘lgan ulug‘ siymolar qatorida qayd etgan. Xususan, davlat rahbari: “Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, vatanparvarlik timsoli bo‘lgan Najmiddin Kubro va Jaloliddin Manguberdi singari ulug‘ zotlar xalqimizning faxr-u iftixoridir”, deya ta’kidlagan [2.].

Asosiy qism. Muxammas Yaqin va O‘rta Sharq hamda O‘rta Osiyo she’riyatining bandli she’r shaklidir. SHe’rning har bir bandi 5 misradan iborat bo‘lib, 3 misra she’r muallifiga tegishli, qolgan 2 misra esa boshqa bir she’rdan olingan misralardir. Muxammasning qofiya tuzilishi ham o‘ziga xos: birinchi bandning misralari umumiy qofiya (radif)ga ega bo‘lib, qolgan bandlar mustaqil qofiyaga ega bo‘ladi. Ba’zan beshinchi misra barcha bandlarda takrorlanadi. YA’ni shoir band shakli va qofiyani o‘zgartirishi mumkin[3] . O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi 8-jildida muxammasga shunday ta’rif beriladi: “Muxammas – Sharq she’riyatidagi she’riy shakllardan, qofiyalanish tartibiga ko‘ra tuzilgan she’r. Muxammasning har bir bandi 5 misradan iborat bo‘lib, aaaaa, bbbba, vvvva, ba’zan esa aaaaa, bbbaa tarzida qofiyalanadi. Bandlarning oxirida shoir taxallusi keltiriladi. Muxammas birinchi bandining beshinchi misrasida qofiya sifatida qo‘llangan so‘z shu misra bo‘ylab 2-3 marta takrorlanadigan namunalari ham uchraydi (masalan, Dilkash, Komil Xorazmiy, Feruz, Muazzamxon va boshqalar ijodida)”.[4]

Ilmiy manbalarga tayangan holda aytish mumkinki,o‘zbek she’riyatida muxammas yozish an’anasi Hofiz Xorazmiy ijodidan boshlanadi.Umumiy 9 bayt-45 misradan iborat bo‘lgan bu muxammas o‘zbek adabiyotida muxammasnavislikning debochasi bo‘lib,oshiqona mavzuda yozilgan.Bu haqida Xorazmiy she’riyatini o‘rgangan olim Mo‘minjon Sulaymonov shunday yozadi:”Hofiz Xorazmiyning tarkiband va muxammasi, ikki mustazodi garchi son jihatdan kam bo‘lsa ham,bu janrlarning o‘zbek adabiyotidagi dastlabki namunasi hisoblanishi bilan qimmatlidir”[5]. Xorazmiy boshlab bergan muxammasnavislikni adabiyotimizda bir qator ijodkorlar davom ettirdi. Xususan, Navoiy, Munis, Amiriy va Ogahiylarni misol sifatida keltirish mumkin. shu o‘rinda adabiyotshunos A. Hayitmetovning qaydlarini keltirishni o‘rinli deb bildik: “Hech qayerda muxammaschilikka berilish Xorazmdagichalik ko‘zga tashlanmaydi”[6]. Aynan,Ogahiy muxammaslariga diqqat qaratadigan bo‘lsak, Ogahiy o‘zbek adabiyotida Navoiydan keyingi o‘rinda turgan muxammasnavis sifatida qaraladi. Uning ijodida turkiy adabiyot asoschisi hisoblangan Alisher Navoiyning adabiy ta’sirini tahlillar davomida ko‘rishimiz mumkin. U bir qancha she’riy janrlarda (g‘azal, muxammas, musaddas, qasida)ijod qilgan.

Ogahiy muxammaslari ham mavzu jihatdan xilma-xildir.Adabiyotshunos olima Dilnavoz Yusupova aynan Ogahiy muxammaslarini quyidagi turlarga bo‘linadi:

1.Oshiqona

2.Orifona

3.Tabiat manzaralari badiiy tasvir obyekti yoxud badiiy tasvir vositasi bo‘lgan

4.Murakkab(majoziy va haqiqiy ishq uyg‘unlikda kelib ,shoir g‘oyasini aks ettiradi)[7].

Oshiqona muxammaslarni tahlil qiladigan bo‘lsak,Ogahiy bu kabi muxammaslarda insonga xos bo‘lgan va azaldan mumtoz adabiyotda bosh mavzuga aylangan ishqni talqin etadi.Bilamizki,Ogahiy she’riyatida bevosita turkiy adabiyot asoschisi Alisher Navoiyning ta’siri seziladi.Aynan muhabbat mavzusi yetakchilik qilgan muxammaslar ham bunga yaqqol misol deyishimiz mumkin.Har ikkala ijodkor lirikasida ham oshiq obrazi hijron azobini tortgan holda ma’shuqa visolini orzu qilib yashar ekan,bu obraz misolida dard yashiringanini bilib olamiz.Bu kabi lirik asarlarda aynan dard mavzusi yuqori mazmun kasb etib ,adabiyotshunos olim R.Vohidov tomonidan quyidagicha ta’riflanadi:„Zero, dard ijod va ishq olamida ijobiy ma’no kasb etadi.Dard-javhar,dard-armon,dard-zabt etilmagan cho‘qqi,dard-ro‘shnolik ko‘rmagan orzu,dard-vosil bo‘lmagan vasl…O‘sha fazilatlardan benasib ishq ham,badiiy asar ham noraso,kemtik,yashashdan mahrum’’[10] Demak, Ogahiyning oshiqona muxammaslarida ham aynan dard chekkan oshiq obrazi asosiy o‘rinda turadi. Barcha muxammaslarni mavzu guruhiga ajratganimizda aniq bo‘ldiki, muxammaslarning katta qismi oshiqona mavzuda yozilgan muxammaslardir. Aniqroq aytadigan bo‘lsak,bu mavzudagi muxammaslar Ogahiy muxammaslarining 55 foizini tashkil etadi

Orifona mavzu ham ko‘pgina ijodkorlar singari Ogahiy muxammaslarida ham uchraydi. Bu kabi mavzularda asosan insonning ichki poklanishi,dunyo o‘tkinchiligi,unga aldanib qolmaslik, nafsni yengish, ilohiy ishq va bu yo‘ldagi qiyinchiliklar, komil inson darajasiga erishish uchun bir qator mashaqqatlarni yengib o‘tish kabilar yetakchilik qiladi va Sharq adabiyotida keng tarqalgan mavzu hisoblanadi.Bu haqida adabiyotshunos olim Bertels ham quyidagi fikrlarni bildirgan: “Musulmon sharqida o‘tgan yirik mualliflarning bari kamdan kam istisnolar bilan tasavvufga u yoki bu darajada aloqador va ular bu adabiyotdan tashqarida to‘la tushunarli bo‘la olmaydi”[12]. Haqiqatan ham, bu mavzuda yozilgan asarlarni chuqur tahlil qilmasdan asl ma’no-mohiyatini anglolmaymiz.Ogahiyning ham muxammaslarida orifona mavzu sezilarli o‘rin egallaydi.Bu kabi muxammaslarining ko‘pchiligida Ogahiy dunyoning o‘tkinchi ekanligini, unga ko‘p muhabbat qo‘ymaslikni,dunyoning shafqatsiz ekanligini ta’kidlaydi va o‘zi ham taqvodor va iymonli shaxs sifatida gavdalanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki,bu mavzudagi muxammaslar shoir muxammaslari ichida 15 foizni tashkil etadi

Bundan tashqari,Ogahiy muxammaslarining yana bir mavzusi bo‘lmish tabiat manzaralarini ham tahlillar davomida uchratamiz. Garchi bu mavzu olimlar tomonidan keng o‘rganilmagan bo‘lsa-da,ko‘pgina jihatdan diqqatga sazovordir. Ushbu muxammaslarda Ogahiy gul, sunbul, bo‘ston, nargis, quyosh, oy, yulduz, yomg‘ir kabi obrazlardan

mohirona foydalangan,bu orqali shoirning badiiy mahorati yuksakligini ko‘rishimiz mumkin. Bu vositalardan foydalanish Ogahiy uchun nega kerak edi? Muxammaslarni tahlil qilish jarayonidan ko‘rinadiki,gul yoki quyosh -yorning jamolini,sarv-uning qomatini,sunbul-sochini,g‘uncha esa labini tasvirlashga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu mavzudagi muxammaslarning mohiyatida oshiqona mazmun bo‘lsa-da,yuqoridagi tabiat tasvirini ifodalovchi obrazlar aynan aynan lirik asarlarni peysaj(tabiat tasviri)mavzusidagi she’rlar deb atalishiga asos bo‘ladi. Aynan Ogahiy muxammaslarida ham oshiqona va tabiat tasviri mavzusi uyg‘unlikda aks etganini ko‘ramiz. “Bu bilan shoir insonni yana ham mukammalroq ko‘rsatishni nazarda tutadi. Ogahiy muxammaslarida tabiat manzaralari aks etishini butun murakkabliklari bilan o‘rganish shoir badiiy olamini kengroq tasavvur qilishga yordam beradi” [7]. Tabiat tasviri mavzusi ham aynan oshiqona mavzudagi muxammaslar bilan bog‘liq holatda tasvirlanadi.Bu mavzudagi muxammaslar ma’shuqaning go‘zalligini yanada chuqur anglatib,oshiqning muhabbati,hijronini aniq aks ettirish uchun xizmat qiladi.Ogahiy muxammaslarining 10 foizini tashkil etadi.

Muxammaslarning keying mavzusi majoziy va haqiqiy ishqning uyg‘unlashuvi aks etgan mavzudir.Bu mavzu mumtoz Sharq adabiyotida,ayniqsa,tasavvufiy adabiyotda keng tarqalgan.Majoziy ishq bu-insonning boshqa bir insonga bo‘lgan muhabbati, haqiqiy ishq esa ilohiy muhabbatdir. Majoziy ishq tashqi go‘zallikni tarannum etib, ma’shuqaga nisbatan visol, hijron, rashk, dard kabilarni ifodalasa, mumtoz adabiyotimizda haqiqiy ishq orqali oshiq ruhan poklanadi,kamolotga erishadi, ruhning Yaratuvchiga muhabbati aks etib, lirik qahramon bu yo‘lda nafsiga qarshi kurashadi. Aksariyat asarlarda majoziy ishqning tub mohiyatida haqiqiy ishq tasvirlanadi, Ogahiyning bu kabi muxammaslarida ham mana shunday badiiy an’ana yetakchilik qiladi, ya’ni muxammas garchi shaklan majoziy mazmunda yozilgan bo‘lsa-da, tahlillar davomida unda haqiqiy ishq tarannum etilganligining guvohi bo‘lamiz.

Ushbu turdagi muxammaslar Ogahiy muxammaslari orasida 10 foizini tashkil etadi

Lekin muxammaslarni tahlil qilish jarayonida rindona xarakterdagi muxammaslar ham mavjudligi ko‘zga tashlandi va mavzu jihatdan bu turdagi muxammaslarni alohida alohida,ya’ni rindona mavzusida yozilgan muxammaslar deb beshinchi guruh sifatida qo‘shsak maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.Chunki Ogahiy devonida bu mavzudagi muxammaslar ham bevosita uchraydi,ya’ni muxammaslar orasida 10 foizga yaqini shu mavzuda yozilgan. Rindona mavzusi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak,bu mavzu mansab,shuhratparastlik,dunyo tashvishlarini inkor etib, ichki ozodlik, samimiyat, haqiqiy ishqni ulug‘lovchi va Sharq mumtoz adabiyotida paydo bo‘lgan va rivojlangan mavzudir. Unda diniy mavzu ustuvor bo‘lib,shuhratparastlik asosidagi taqvo va insonga xos soxta axloq-odob tanqidga olinadi.Bu mavzudagi she’riy asarlardagi bosh qahramon „rind’’hisoblanib,bu dunyoga nisbatan beparvo, jamiyat tartib-qoidalaridan yiroq, lekin ichki tomondan chuqur fikrlovchi va idrok egasi sifatida tasvirlanadi.Bu obraz faqatgina ibodat bilan shug‘ullanib qolmasdan,ruhan va ma’nan pok inson obrazida namoyon bo‘ladi. U uchun insonga xos bo‘lgan ishq va ibodat qiymati insonlarga ko‘rinish bilan emas,aksincha,ichki dunyoning mohiyati bilan o‘lchanadi. Rindona mavzusidagi she’rlarga xos obrazlar sifatida rind(haqiqiy ishq sohibi), mayxona(ruhiy makon), soqiy(ilohiy hidoyatdagi shaxs), qadah(ishqni qabul qilish vositasi)kabilar ishtirok etadi. Aynan shu obrazlar rindona mavzudagi asarlarga xos asosiy xususiyatdir va qolgan mavzulardan ajralib turuvchi farqi ham mana shu obrazlarda. Lekin bu mavzudagi she’rlarda ham mazmunan haqiqiy ishq timsoli namoyon bo‘ladi. Ogahiy ijodida ham rindona mavzusini tahlillar davomida ko‘rib chiqib,alohida mavzu sifatida ajratish to‘g‘ri deb hisobladik. Quyida rindona mavzudagi muxammasga diqqat qarataylik:

Subh may no‘sh etgali ,ey dilbari,Ishrat maob,
Bazm aro maskan tutub xurshid yanglig‘ beniqob ,
Ilginga olg‘och qadah gah lutf aylab,gah itob,
Ikki o‘tlug‘ nargisingkim qildilar bag‘rim kabob,
Biridir ayni xumor ichinda ,biri masti xob.[11]

Mazmuniy tahliliga e’tibor qiladigan bo‘lsak,1-misradagi „subh’’(tong)tushunchasi yangilanish va ruhning uyg‘onishi ma’nosida bo‘lsa, „may’’obrazi ishq va ruhiy mastlik mazmunida ifodalangan bo‘lib, oshiqning ishqdan mast holatligi ifodalangan.Keyingi misralarda esa yor quyoshga o‘xshatiladi va yor yuzi yashirin emas, balki quyoshdek porlab turadi.Yuqorida qadah-ishqni qabul qilish obrazi ekanligi aytib o‘tilgan edi. Muxammasning aynan 3-misrasida qadah obrazi kelib,u yorning qo‘lida, ya’ni ma’shuqa goh qadahni olib oshiqning ishqini qabul qiladi,goh rad etib oshiqni hijron azobida qoldiradi. Bu orqali ma’shuqa ruhiy beqaror shaxs sifatida gavdalanadi. Uning ko‘zlari oshiqning butun borlig‘ini yondirib ,qalbini vayron qiladi. Natijada lirik qahramon holati goh ishqdan mast holatda,goh ishq tufayli g‘amlik holatida tasvirlanadi. Ko‘rinib turibdiki muxammasning ma’no-mazmuni oshiqona ruhda bo‘lsa-da, may, qadah, mastlik, xumor kabi obrazlar rindona mavzudagi lirikaga tegishli tushunchalardir. Yuqorida aytilganidek,ushbu turdagi muxammaslar oshiqona mavzudagi she’rlar bilan hamohang mavzuda yoziladi.Biroq rindona mavzudagi asarlar oshiq ruhiy holatini yanada aniqroq va badiiyroq tasvirlanadi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ogahiyning asarlari nafaqat o‘zbek adabiyotida,balki butun Sharq va G‘arb adabiyotida ham o‘z o‘rniga egadir. Uning ijodiy faoliyati hali jahon miqyosida keng tarqalmagan bo‘lsa-da,o‘z davri adabiyotida ham,hozirgi dunyo adabiyotlarida ham turli olimlar tomonidan o‘rganildi va o‘rganilmoqda. Uning asarlari,ayniqsa biz tadqiq etayotgan muxammaslar ham ta’limiy va tarbiyaviy jihatiga ko‘ra yosh avlodlar orasida katta ahamiyat kasb etadi. Asarlarni tahlil etarkanmiz ,Ogahiy shaxsiyatida va ijodida haqiqiy Sharq mentaliteti aks etgan lirik qahramonni ko‘ramiz va bu asarlar ijodkorning naqadar keng tafakkur egasi va axloq-odob aks etgan shaxs ekanligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. O‘ylaymizki, Ogahiy ijodidagi ko‘pgina hali o‘rganilmagan jihatlar ham keng tadqiq qilinib jahon adabiy maydoniga olib chiqiladi va o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари // Халқаро конференция иштирокчиларига табрик. – 2018 йил 7 август.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xiva shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvdagi nutq. 2025-yil 1-may.
3. Boltayeva G. O’zbek adabiyotida muxammas janri genezesi.Doktorlik dissertatsiyasi.2025
4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8-jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B.302.
5. Sulaymonov M.Hofiz Xorazmiy va o’zbek lirik she’riyatining rivoji:Filol.fanlari nomzodi dis.avtoref.-Toshkent:-1996.-26 b
6. Hayitmetov A.Navoiy lirikasi.-Toshkent:Fan,1961,295 b
7. Xalliyeva G.Ogahiy musammatlari.Monografiya.-Toshkent:-2019.-160 b
8. Jumayev N.Feruz madaniyat va san’at homiysi.-Toshkent:Fan,1995.-90 b
9. Majidiy R.Ogahiy lirikasi.-Toshkent:Fan,1963.138 b
10. Vohidov R.Alisher Navoiy va ilohiyot.-Buxoro,1994.-208b
11. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik.2-jild.Devon.-Toshkent:Adabiyot va san’at nashriyoti,1972-yil.-418 b
12. Бертельс Е. С. Суфизм и суфийская литература. М.: Наука,1965,524 с.